



XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 14 - oktabr

VI-62-117-11-160-K/22

Toshloq tumani hokimligi

Toshloq tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oylik ijrosi hamda Toshloq tuman byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 165-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-sonli Farmoni hamda tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oylik ijrosi yuzasidan tuman moliya bo‘limining hisobotini tinglab va muhokama etib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy byudjetning 2022 yil 9 oylik ijrosi to‘g‘risidagi Toshloq tumani hokimligi moliya bo‘limi mudiri Qurbonov Jasur Raxmatovichning xisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshloq tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oylik ijrosi to‘g‘risidagi hisobot tasdiqlansin.

Bunga ko‘ra:

Toshloq tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oylik mahalliy byudjet daromadlari 64,196 mln. so‘m va mahalliy byudjet xarajatlari kiritilgan o‘zgartirishlar bilan birga 178,7 mln. so‘m miqdoridagi ijrosi ma‘qullansin.

3. Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oy davomida kiritilgan o'zgarishlari bilan aniqlangan reja bo'yicha daromadlar miqdori 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

- tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oy davomida kiritilgan o'zgarishlari bilan aniqlangan reja bo'yicha daromadlar sohalar kesimidagi miqdori 1a –ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

- tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oy da kiritilgan o'zgarishlari bilan aniqlangan reja bo'yicha xarjatlar miqdori 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Toshloq byudjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil III-chorakda shakllangan qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'lar 4 – ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Mazkur qaror asosida mablag' ajratilayotgan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'i oluvchilar rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini hamda moliyalashtirish manbasini ochish uchun o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni hamda mablag'larni ishlatish yakuni bilan tegishli hisobotlarni tuman moliya va g'aznachilik boshqarmalariga taqdim etilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri (J.Qurbonov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov), tegishli idora va tashkilotlar hamda hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilari bilan birgalikda xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy byudjetning ijrosi to'g'risida har chorakda axborot berib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (K.Umarov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov) soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazani to'liq qamrab olish, soliqlar yig'ilishi darajasini oshirish, mavjud zaxiralarni safarbar etish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali tegishli byudjet daromadlari prognozining bajarilishini ta'minlash; byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda uni tejash, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan foydalanishning natijadorligi bo'yicha hisobdorlik tizimini kuchaytirish; birinchi navbatda moliyalashtiriladigan (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar) xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va kreditor qarzdorlikka yo'l

qo‘ymaslik; mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat soliq xizmati organlari rahbarlari byudjet daromadi prognoz ko‘rsatkichlarini ortiqcha to‘langan va undirilgan soliq summalari hisobiga bajarilishiga yo‘l qo‘ymasliklari bo‘yicha qat’iy ogohlantirilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

6. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari K.Umarov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Djurabaev

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-62-117-11-160-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oylikda kiritilgan o'zgarishlari bilan aniqlangan reja bo'yicha daromadlari miqdori

№	Tumanlar nomi	2022 yil 9 oylikda tasdiqlangan reja	2022 yil 9 oylikda aniqlangan reja	2022 yil 9 oylikda kiritilgan o'zgarishlar jami (+,-)	(ming so'm)				
					shu jumladan:				
					Daromadlar bo'yicha viloyat moliya boshqarmasining bildirishnomalariga asosan kiritilgan o'zgarishlar (+, -)				
Jami	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak					
1	Toshloq tumani	53 831 200,0	57 500 000,0	3 668 800,0	7 705 800,0	-920 600,0	4 957 600,0	3 668 800,0	0,0

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-62-117-11-160-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 9 oylikda kiritilgan o'zgarishlari bilan aniqlangan reja bo'yicha daromadlari miqdori

№	Soxalar nomi	2022 yil 9 oylikda tasdiklangan reja	2022 yil 9 oylikda aniqlangan reja	2022 yil 9 oylikda kiritilgan o'zgarishlar jami (+,-)	Daromadlar bo'yicha viloyat moliya boshqarmasining bildirishnomalariga asosan kiritilgan o'zgarishlar (+, -)
					9 oylik
I,	Daromadlar jami (soliq va tushumlar)	53 831 200,0	57 500 000,0	3 668 800,0	3 668 800,0
1	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	207 000,0	211 000,0	4 000,0	4 000,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	7 234 000,0	7 694 000,0	460 000,0	460 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	23 163 000,0	27 370 000,0	4 207 000,0	4 207 000,0

4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	488 000,0	500 000,0	12 000,0	12 000,0
5	Qo'shilgan qiymat solig'i			0,0	0,0
6	Aksiz solig'i, jami	3 601 200,0	4 064 000,0	462 800,0	462 800,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 879 000,0	2 917 000,0	1 038 000,0	1 038 000,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 730 000,0	3 279 000,0	-451 000,0	-451 000,0
9	Jismoniy shaxslarlan olinadigan yer solig'i	8 150 000,0	7 481 000,0	-669 000,0	-669 000,0
10	Yuridik shaxslardan yer solig'i	3 460 000,0	2 703 500,0	-756 500,0	-756 500,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 649 000,0	1 084 500,0	-564 500,0	-564 500,0
12	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i			0,0	0,0
14	Davlat boji			0,0	0,0
15	Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (Noruda materiallari)	270 000,0	196 000,0	-74 000,0	-74 000,0
16	Jarimalar			0,0	0,0

17	Uz IIV YXX Bosh boshkarmasi va uning xududiy bulinmalari tomonidan undiriladigan yigim			0,0	0,0
18	Bozorlar daromadidan tushum			0,0	0,0
19	Maxalliy iygimlar			0,0	0,0
20	Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoki gisi va gaz istemol qilganlik uchun soli			0,0	0,0
21	Boshqa tushumlar			0,0	0,0

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-62-117-11-160-K/22-son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 3-chorak kiritilgan o'zgarishlari bilan aniqlangan reja bo'yicha xarajatlari miqdori									
№	tashkilot nomi	2022 yil 3-chorak tasdiqlangan reja	2022 yil 3-chorak aniqlangan reja	2022 yil 3-chorak davomida kiritilgan o'zgartirishlar (+,-)	(ming so'm)				
					shu jumladan:				
					Xarajatlar bo'yicha viloyat moliya boshqarmasining bildirishnomalariga, tuman hokimining farmoyishlariga va byudjet muassasalarining so'rovlariga asosan kelishilgan tegishli taqdimnomalarga asosan kiritilgan o'zgarishlar (+, -)				
					Jami	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1	Toshloq tuman hokimligi	1 609 125,0	1 747 027,0	137 902,0	137 902,0	0,0	-3 100,0	141002	
2	Toshloq tuman hokimligi (daromadlarni xarajatlardan oshgan kismi mablaglari)	0,0	524 666,7	524 666,7	524 666,7	0,0	182 504,5	342162,2	
3	Toshloq tuman hokimligi (Erkin koldik mablaglari)	0,0	990 440,6	990 440,6	990 440,6	975 410,6	15 030,0	0	
4	Toshloq tuman maxallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	3 275 782,0	3 100 329,0	-175 453,0	-175 453,0	0,0	-357 700,0	182247	
5	Toshloq tuman hokimligi (Toshloq tuman Xalk kabulxonasi)	23 083,0	24 502,0	1 419,0	1 419,0	0,0	0,0	1419	
6	Toshloq tuman hokimligining moliya bulimi	664 488,0	851 844,0	187 356,0	187 356,0	0,0	31 250,0	156106	
7	Toshloq tuman hokimligining moliya bulimi (Erkin koldik mablaglari)	0,0	145 262,8	145 262,8	145 262,8	145 262,8	0,0	0	

8	Toshloq tuman hokimligining moliya bulimi (Daromadlarning xarajatlardan ortgan kismi mablaglari)	0,0	80 000,0	80 000,0	80 000,0			80000	
9	Toshloq tuman maxalla va oilani kullab kuvvatlash bulimi MFY	4 039 578,0	4 035 819,0	-3 759,0	-3 759,0	0,0	89 300,0	-93059	
10	Toshloq tuman hokimligi (zaxira) mablaglari	1 350 000,0	17 138,9	-1 332 861,1	-1 332 861,1	-399 323,7	-402 381,4	-531156	
11	Toshloq tuman hokimligi zaxira jamgarma	0,0	1 089 029,1	1 089 029,1	1 089 029,1	389 323,7	320 481,4	379224	
12	Toshloq tuman hokimligi Madaniyat bulimi zaxira jamgarmasi	0,0	82 100,0	82 100,0	82 100,0	10 000,0	32 100,0	40000	
13	Toshloq tumani Xalk ta'limi bulimi Markazlashgan Zaxiri Jamgarmasi	0,0	88 232,0	88 232,0	88 232,0	35 000,0		53232	
14	Toshloq tuman maxalla va oilani kullab kuvvatlash blimi	0,0	73 500,0	73 500,0	73 500,0	14 800,0		58700	
15	Xalk deputatlari Toshloq tuman Kengashi kotibiyati	134 869,0	140 155,0	5 286,0	5 286,0	0,0	0,0	5286	
16	Xalk deputatlari Toshloq tuman Kengashi kotibiyati(Daromadlar rejasini ortikcha bajarilgan kismi xisobidan beriladigan mablaglar)	0,0	40 075,0	40 075,0	40 075,0		19 457,5	20617,5	
17	Xalk deputatlari Toshloq tuman Kengashi kotibiyati	0,0	20 859,4	20 859,4	20 859,4	20 859,4	0,0	0	
18	Toshloq tuman maxalla va oilani kullab kuvvatlash bulimi	385 574,0	370 851,0	-14 723,0	-14 723,0	0,0	-7 075,0	-7648	
19	Toshloq tuman maxalla va oilani kullab kuvvatlash bulimi(rkin koldik mablaglari)	0,0	116 508,0	116 508,0	116 508,0	92 430,0	24 078,0	0	
20	Toshloq tuman hokimligining moliya bulimi (Advokatlik xizmati mablaglari)	0,0	94 935,0	94 935,0	94 935,0	29 676,0	24 138,0	41121	
21	Toshloq tuman hokimligi Boshka xarajatlar	0,0	2 692 191,0	2 692 191,0	2 692 191,0	2 663 911,0	28 280,0	0	

22	Toshloq tuman hokimligi Daromadlar rejasining ortikcha bajarilgan kismi xisobidan (Boshka xarajatlar) Obod kishlok dauturi uchun berilgan mablaglar	0,0	613 418,3	613 418,3	613 418,3		73 000,0	540418,31	
23	Toshloq tuman hokimligi erkin koldik(Fukarolar tashabbusi jamgarmasi)	0,0	1 508 000,0	1 508 000,0	1 508 000,0	1 508 000,0	0,0	0	
24	Toshloq tuman hokimligi daromad (Fukarolar tashabbusi jamgarmasi)	0,0	1 444 000,0	1 444 000,0	1 444 000,0		207 000,0	1237000	
25	Toshloq tuman hokimligi (Fukarolar tashabbusi jamgarmasi)	8 607 937,0	8 607 937,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0	
26	Toshloq tuman hokimligining moliya bulimi Zachet	0,0	0,0	0,0	0,0		24 100,0	-24100	
27	Toshloq tumani fermer xujaliklarida buxgalteriya xisobi va xisobotini yuritish markazi	355 024,0	394 444,0	39 420,0	39 420,0	0,0	0,0	39420	
28	Toshloq tumani Veterinariya bulimi	514 320,0	524 930,0	10 610,0	10 610,0	0,0	-5 000,0	15610	
29	Toshloq tumani xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazlari	206 483,0	216 169,7	9 686,7	9 686,7	0,0	0,0	9686,703	
30	Toshloq tuman Irrigatsiya bulimi	1 222 558,0	1 441 463,0	218 905,0	218 905,0	0,0	131 000,0	87905	
31	Toshloq tuman Irrigatsiya bulimi(PK-5005-sonli karor) Dasturlar	467 424,0	467 424,0	0,0	0,0			0	
32	Toshloq tuman Irrigatsiya bulimi Daromad rejadan orttirib bajarilgan kismi	0,0	12 478,0	12 478,0	12 478,0			12478	
33	Toshloq tuman kishlok xujaligi bulimi	301 271,0	310 146,0	8 875,0	8 875,0	0,0	-4 501,0	13376	
34	Toshloq tuman Moliya bulimi VM 320 Fermerlar Elektr	0,0	41 527,0	41 527,0	41 527,0			41527	
35	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi It ovlash	70 012,0	73 576,2	3 564,2	3 564,2	0,0	0,0	3564,2	
36	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi	112 513,0	0,0	-112 513,0	-112 513,0			-112513	

37	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi	300 000,0	0,0	-300 000,0	-300 000,0			-300000	
38	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi Mening yulim (ID1450500003)	0,0	1 095 253,0	1 095 253,0	1 095 253,0		18 253,0	1077000	
39	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi	200 000,0	0,0	-200 000,0	-200 000,0			-200000	
40	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi Yashil makon PF-46	0,0	213 000,0	213 000,0	213 000,0		213 000,0	0	
41	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi	0,0	330 000,0	330 000,0	330 000,0			330000	
42	Eshlar ishlari agentligi Toshloq tumani bulimi	0,0	2 909 962,5	2 909 962,5	2 909 962,5	544 593,0	1 397 876,0	967493,5	
43	Eshlar ishlari agentligi Toshloq tumani bulimi (erkin koldik mablaglari)	0,0	189 210,0	189 210,0	189 210,0	189 210,0	0,0	0	
44	Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida maxalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari	600 000,0	132 700,0	-467 300,0	-467 300,0			-467300	
45	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi Drenaj	43 165,0	44 342,0	1 177,0	1 177,0	0,0	0,0	1177	
46	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi (tashki yoritish uchastkasi)	131 760,0	235 688,1	103 928,1	103 928,1	20 000,0	6 600,0	77328,078	
47	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi	2 577 782,0	2 641 544,7	63 762,7	63 762,7	-20 000,0	102 585,0	-18822,253	
48	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi (Erkin koldik mablaglari)	0,0	50 000,0	50 000,0	50 000,0	50 000,0	0,0	0	
49	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi PK 4351	553 150,0	545 000,0	-8 150,0	-8 150,0		-193 000,0	184850	
50	Toshloq tuman kommunal obodonlashtirish bulimi (kabristonlar)	3 135 985,0	3 161 190,0	25 205,0	25 205,0	0,0	-30 600,0	55805	
51	Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi (poliklinika)	9 199 567,0	10 391 632,0	1 192 065,0	1 192 065,0	9 687,0	-143 190,4	1325568,36	

52	KTPM markazlashgan dori darmon	1 512 900,0	1 022 846,0	-490 054,0	-490 054,0		-430 903,3	-59150,665	
53	Toshloq tumani TB KOP Markazlashgan Xisobxona	9 606 285,0	11 387 649,0	1 781 364,0	1 781 364,0	48 222,0	52 473,0	1680669	
54	Toshloq tumani TB KVP Markazlashgan Xisobxona	2 295 042,0	2 590 036,0	294 994,0	294 994,0	9 282,0	-100 435,0	386147	
55	Tibbiy birlashmasi Tez tibbiy yordam bulimi	5 174 003,0	6 125 557,0	951 554,0	951 554,0	20 524,0	117 992,0	813038	
56	Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi	16 349 645,0	18 957 311,0	2 607 666,0	2 607 666,0	76 146,0	2 076 600,0	454920	
57	Tibbiy birlashmasi Shoshilin tez yordam bulimi	3 133 118,0	3 726 502,0	593 384,0	593 384,0	11 840,0	49 893,0	531651	
58	Toshloq tumani Sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi	1 928 494,0	2 077 211,0	148 717,0	148 717,0	22 493,0	184 735,5	-58511,5	
59	Toshloq tumani tibbiy birlashmasi inkirozga karshi kurash jamgarmasi	0,0	1 690,0	1 690,0	1 690,0	1 690,0	0,0	0	
60	Toshloq tumani Davlat Sanitariya-Epidemiologiya nazorat Markazi inkirozga karshi kurashish jamgarmasi	0,0	56 489,0	56 489,0	56 489,0	56 489,0	0,0	0	
61	Toshloq tumani Axoli soglom turmush tarzi	115 842,0	131 383,0	15 541,0	15 541,0	0,0	0,0	15541	
62	Toshloq tumani Axborot-Kutubxona markazi	399 763,0	380 651,0	-19 112,0	-19 112,0	0,0	-24 100,0	4988	
63	Toshloq tumani Axborot-Kutubxona markazi erkin koldik mablaglari	0,0	25 000,0	25 000,0	25 000,0		25 000,0	0	
64	Toshloq tuman hokimligi Madaniyat bulimi	629 365,0	614 963,0	-14 402,0	-14 402,0	0,0	0,0	-14402	
65	Bolalar va o'smirlar sport maktabi	0,0	2 274 469,7	2 274 469,7	2 274 469,7		902 192,7	1372277	
66	Bolalar va smirlar sport maktabi	3 365 773,0	1 282 970,3	-2 082 802,7	-2 082 802,7	0,0	-907 192,7	-1175610	
67	Toshloq tumani Oila va xotin kizlar bulimi	0,0	904 254,0	904 254,0	904 254,0		212 500,0	691754	
68	Toshloq tuman hokimligi Madaniyat bulimi	123 260,0	127 958,0	4 698,0	4 698,0	0,0	5 150,0	-452	
69	Toshloq tuman hokimligi Madaniyat bulimi	70 065,0	60 065,0	-10 000,0	-10 000,0	0,0	0,0	-10000	

70	Toshloq tuman MTB Markazlashgan Xisobxona	8 814 854,0	8 886 368,0	71 514,0	71 514,0	0,0	0,0	71514	
71	Toshloq tuman hokimligining moliya bulimi(VM-595)	0,0	12 487 170,0	12 487 170,0	12 487 170,0	3 725 971,0	3 865 533,0	4895666	
72	Toshloq tuman MTB Markazlashgan xisobxona erkin koldk mablaglari	0,0	580 000,0	580 000,0	580 000,0	580 000,0	0,0	0	
73	Toshloq tumani XTB markazlashgan xisobxona	2 661 944,0	2 881 892,0	219 948,0	219 948,0	-50 000,0	-109 100,0	379048	
74	Toshloq tumani Xalk ta'limi bulimi Markazlashgan(daromad oshgan kismi)	0,0	197 000,0	197 000,0	197 000,0			197000	
75	Toshloq tumani XTB BAM Markazlashgan xisobxona	793 084,0	859 769,0	66 685,0	66 685,0	12 294,0	7 289,0	47102	
76	Toshloq tumani XTB aparat Markazlashgan xisobxona	1 939 855,0	1 904 185,0	-35 670,0	-35 670,0	0,0	-24 100,0	-11570	
77	Toshloq tumani Xalk ta'limi bulimi Markazlashgan(Daromadlarning xarajatlardan ortgan kismi mablaglari)	0,0	46 039,6	46 039,6	46 039,6			46039,574	
78	Toshloq tumani Xalk ta'limi bulimi Markazlashgan ragbatlantirish	450 000,0	669 447,0	219 447,0	219 447,0	50 000,0	152 447,0	17000	
79	Toshloq tumani Xalk ta'limi bulimi(Erkin koldik mablaglari)	0,0	67 000,0	67 000,0	67 000,0	67 000,0	0,0	0	
80	Toshloq tuman 22-sonli bolalar musika va san'at maktabi	1 746 474,0	1 831 496,0	85 022,0	85 022,0	14 459,0	101 232,0	-30669	
81	Toshloq tuman MTB Aparat Markazlashgan Xisobxona	877 502,0	682 650,0	-194 852,0	-194 852,0	0,0	-173 974,0	-20878	
82	Toshloq tuman moliya bulimi (Tibbiy ijtimoiy xizmati)	15 060,0	15 060,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0	
83	14 yeshgacha bolalari bulgan oilalarga nafaka	39 800 313,0	46 356 846,0	6 556 533,0	6 556 533,0	0,0	195 800,0	6360733	
84	Kam daromadli oilalarga beriladigan moddiy yordam	578 281,0	705 548,0	127 267,0	127 267,0	0,0	61 100,0	66167	

85	Toshloq tuman bandlikka kumaklashish va axolini ijtimoiy muxofaza kilish markazi	473 860,0	519 186,0	45 326,0	45 326,0	0,0	17 000,0	28326	
86	Tuman ?okimligi xuzuridagi ijtimoiy ko'nikma markazi	78 821,0	92 338,0	13 517,0	13 517,0	0,0	3 100,0	10417	
87	Eshlar daftariga kiritilgan yeshlarni ijtimoiy kullab-kuvvatlash jamgarmasi	0,0	723 000,0	723 000,0	723 000,0		104 000,0	619000	
88	Eshlar daftariga kiritilgan yeshlarni ijtimoiy kullab-kuvvatlash jamgarmasi	0,0	754 000,0	754 000,0	754 000,0	754 000,0	0,0	0	
89	Aellar daftariga kiritilgan aellarni ijtimoiy kullab-kuvvatlash jamgarmasi	0,0	723 000,0	723 000,0	723 000,0		104 000,0	619000	
90	Aellar daftariga kiritilgan aellarni ijtimoiy kullab-kuvvatlash jamgarmasi	0,0	754 000,0	754 000,0	754 000,0	754 000,0	0,0	0	
	Tuman mahalliy byudjeti jami	143 015 053,0	187 403 500,6	44 388 447,6	44 388 447,6	12 433 249,8	8 261 717,8	#####	0,0

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-62-117-11-160-K/22-son qaroriga
4-ilova

1) 1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur nizom tuman byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish, shuningdek, “Ochiq byudjet” portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish tartibini belgilaydi”;

2) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**jamoatchilik fikri** – ushbu Nizomda belgilangan tartibda fuqarolar tomonidan tuman (shahar)da mavjud ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan ishlarni (xizmatlarni) mazkur hudud mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish bo‘yicha bildirilgan takliflar;

tashabbusli byudjet jarayoni – “Ochiq byudjet” axborot portalida (keyingi o‘rinlarda – Portal) jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, ularni saralash va ovoz berish jarayoni doirasida g‘olib loyihalarni aniqlash hamda tuman va shahar byudjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni o‘z ichiga olgan jarayon;

g‘olib loyiha – Portalda ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra to‘plangan ovozlar soni asosida avtomatik tarzda tanlab olingan loyiha;

fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi –Toshloq tuman hokimligida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari shaklida ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i;

loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi – tashabbusli byudjet jarayoni doirasida g‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini Portal orqali bevosita fuqarolarga kuzatib borish imkoniyatini beruvchi maxsus

bo‘lim;

ishchi komissiya – jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha Toshloq tuman hokimligi qoshida tashkil etilgan komissiya;

onlayn murojaat – Portalda fuqarolar tomonidan savol, shikoyat, taklif yoki qonun buzilish holatlari yuzasidan xabar qoldirish imkoniyatini beruvchi maxsus sahifa”;

3) quyidagi mazmundagi 21, 22, 23, 24 va 25-boblar bilan to‘ldirilsin:

**“21-bob. “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik
fikri shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish tartibi**

324. Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) mablag‘lari faqat Portal orqali g‘olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Bunda loyihada nazarda tutilgan tadbirlardan tashqari ushbu tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha rasmiylashtirilishi lozim bo‘lgan xujjatlar (tegishli tashkilotlarning xulosalari, yakuniy ko‘rikdan o‘tkazish xarajatlari va boshqalar) uchun ham to‘lovlar moliyalashtirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

325. Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish tegishli xalq deputatlari tuman Kengashlari qarori asosida amalga oshiriladi.

326. Loyihalarni ko‘rib chiqish va amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi tashkilotlar mazkur nizomning 5-ilovasiga muvofiq tarzda belgilanadi.

327. Tashabbusli byudjet jarayoni doirasida fuqarolar tomonidan kelib tushgan loyihalar Ishchi komissiya tomonidan Portalga kelib tushgan kundan boshlab 10 kun ichida mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq loyihaning mazmunan tegishliligi bo‘yicha buyurtmachi korxonalariga (keyingi o‘rinlarda – buyurtmachi) yuboriladi.

328. Buyurtmachilar tomonidan loyihalar qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kunida qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga muvofiqligi yuzasidan loyihalarni ko‘rib chiqadi va Ishchi komissiyaga loyihalarni qabul qilish (loyihaning qiymati va amalga oshirish uchun talab etiladigan qo‘shimcha hujjatlar ro‘yxatini ilova qilgan holda) yoki asoslantirilgan holda rad etish yuzasidan xulosa taqdim etadi.

329. Ishchi komissiya loyihalarni buyurtmachilar tomonidan taqdim etilgan xulosalar asosida ovoz berish bosqichiga o‘tkazadi.

3210. Ovoz berish bosqichi yakunlariga ko‘ra loyihalarga to‘plangan ovozlar sonidan kelib chiqib, Portal tomonidan avtomatik tarzda “g‘olib” loyihalar ro‘yxati shakllanadi.

3211. Tashabbusli byudjet jarayoni doirasida ovoz berish bosqichi yakunlangandan so‘ng 7 kun muddatda “g‘olib” deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan Ishchi komissiya tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga qaror loyihasi kiritiladi.

3212. Qaror loyihasiga g‘olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan “Manzilli ro‘yxat” ilova qilinadi. Manzilli ro‘yxat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- g‘olib deb topilgan loyihaning Portaldagi xos “ID” raqami;
- amalga oshiriladigan tadbirlarning aniq manzili yoki balansda saqlovchi korxonaning manzili va nomi;
- loyihada nazarda tutilgan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarning qisqacha mazmuni;
- tadbirni amalga oshirish uchun talab etiladigan dastlabki mablag‘ qiymati;
- loyihani amalga oshirish uchun buyurtmachi etib belgilangan korxonasi;
- loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan qo‘shimcha hujjatlar (binolarni qurish uchun ekspertiza hujjatlari, hokimning yer ajratish to‘g‘risidagi tegishli qarori, loyiha-smeta hujjatlari va boshqalar);

- agar tadbir bevosita tovar va moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, ushbu loyihalar bo‘yicha mazkur nizomning 6-ilovasiga muvofiq shaklda xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reestri (keyingi o‘rinlarda – Reestr) ilova qilinadi. Bunda reestrda ko‘zda tutilgan xaridlarning jami summasi Manzilli ro‘yxatda tegishli loyihani moliyalashtirish uchun ko‘zda tutilgan mablag‘dan ortib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

- xarid qilish tartib-taomili turi (elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va boshqalar).

3213. Manzilli ro‘yxat belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi, jumladan, buyurtmachi tashkilotlar to‘g‘ri tanlanishi, Reestr to‘g‘ri shakllantirilishi, xarid qilish tartib-taomili turi va loyihani amalga oshirish aniq manzili kabi ma‘lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilishi uchun Ishchi komissiya mas‘ul hisoblanadi.

3214. G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirish uchun yer va boshqa resurslar ajratilishi, shuningdek, tegishli soha inspeksiyalarining ekspertiza xulosalari talab etilgan hollarda, ushbu resurslarni ajratish bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega tashkilotlarga Manzilli ro‘yxat tasdiqlangandan so‘ng 1 ish kunida tuman (shahar) hokimligi tomonidan so‘rov yuboriladi.

3215. Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi tomonidan qaror va manzilli ro‘yxat tasdiqlanganidan so‘ng tuman moliya bo‘limi tomonidan g‘olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun buyurtmachi tashkilotlarga har bir loyiha uchun alohida Moliya vazirligi G‘aznachiligida mablag‘lar manbasi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” bo‘lgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi.

3216. Ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga 3 ish kuni ichida Jamg‘arma hisobidan tuman hokimligi tomonidan g‘olib deb topilgan loyihalar uchun Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan mablag‘lar o‘tkazib beriladi.

3217. Manzilli ro‘yxatda nazarda tutilgan mablag‘lar tegishli shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga o‘tkazib berilgandan so‘ng buyurtmachi tashkilotlar 3 ish kunida tovar-moddiy boyliklar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish uchun ta‘minotchi korxonalarni aniqlash, qurilish-ta‘mirlash bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini shakllantirish va loyihachi korxonalarni

aniqlash bo'yicha davlat xaridlari elektron tizimiga e'lon joylashtiradi.

3218. Qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan loyiha-smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingan kundan boshlab 1 ish kunida buyurtmachi tashkilotlar Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan xarid qilish tartib-taomili turi bo'yicha pudratchi korxonalarini aniqlash choralarini ko'radi.

3219. G'olib loyihalar amalga oshirish shakllariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish bo'yicha tadbirlar;
- bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta'mirlash (rekonstruksiya qilish) bo'yicha tadbirlar;
- bino va inshootlar qurish (barpo etish) bo'yicha tadbirlar.

22-bob. Tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish

3220. Tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda buyurtmachi tashkilot davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni yetkazib beruvchi yoki pudratchilarni aniqlash:

- elektron do'kon orqali;
- boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion orqali;
- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali davlat xaridlarini amalga oshiradi.

3221. Tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) xarid qilish 3220-bandda keltirilgan xarid qilish tartib-taomili turi orqali tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

3222. Ajratilgan mablag'lar faqat Manzilli ro'yxatga ilova qilingan Reestrda nazarda tutilgan tovar-moddiy qiymatliklar (xizmatlar)ni xarid qilish uchun sarflanadi. Bunda reestrda kiritilgan tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar) turi o'zgartirilishiga yoki soni oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3223. Xarid qilinishi nazarda tutilgan tovar-moddiy qiymatliklarni haqiqiy bozor narxi g'olib deb topilgan loyiha uchun nazarda tutilgan mablag'dan ortiq bo'lsa, ushbu holatda Reestrning jami summasiga aniqlik kiritilishi mumkin. Bunday hollarda yetishmagan mablag'lar Jamg'arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro'yxatga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

3224. Xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklar buyurtmachi tashkilot balansiga kirim qilinadi va belgilangan tartibda buxgalteriya hisobotlarida aks ettiriladi.

3225. Buyurtmachi tashkilot xarid qilingan tovar-moddiy qiymatliklarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish yuzasidan kelgusi moliya yili uchun byudjet so'rovida tegishli mablag'lar ko'zda tutilishini ta'minlaydi.

3226. Umumfoydalanishda bo'lgan tabiiy resurslar bilan ta'minlash vositalari (transformator, quvurlar, uzellar va boshqa tabiiy resurslarni yetkazib berishda qo'llaniladigan vositalar)dan foydalanishda buyurtmachi tashkilot mazkur vositalarni o'z balansiga kirim qiladi hamda tomonlar o'rtasida kelishuv asosida tegishli ekspluatatsiya korxonalariga foydalanish uchun beradi.

**23-bob. Bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta'mirlash
(rekonstruksiya qilish) bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish**

3227. Mavjud bino va inshootlarni joriy yoki kapital ta'mirlash (keyingi o'rinlarda – ta'mirlash) bo'yicha tadbirlar buyurtmachi tashkilot tomonidan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq:

a) ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni:

- elektron do'kon orqali;
- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;
- yagona yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shaklda;

b) ta'mirlash ishlarini amalga oshiruvchi pudratchi tashkilotlarni:

- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshiradi.

3228. Ta'mirlash ishlarini amalga oshirish hamda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun pudratchilarni aniqlash 3227-bandda keltirilgan usullardan biri orqali qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

3229. Ajratilgan mablag'lar faqat Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish va ushbu tadbirlarni bajarish uchun qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlariga sarflanishi mumkin. Bunda Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan ta'mirlash ishlari hajmining oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3230. Ta'mirlash ishlarining haqiqiy bozor narxi Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'dan ortiq bo'lsa, ekspertizadan o'tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari hamda buyurtmachi korxonaning xulosasiga asosan loyihaning amalga oshirish yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi mumkin. Bunday hollarda qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar Jamg'arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro'yxatga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

3231. Ta'mirlash ishlari uchun buyurtmachi etib, qoida tariqasida, balansda saqlovchi yoki byudjet mablag'i taqsimlovchi belgilanadi. Agar loyihaning amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining

1000 barobaridan ortiq bo‘lsa (ichki yo‘llarni ta‘mirlash bundan mustasno), buyurtmachi etib viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK DUK buyurtmachi etib belgilanishi mumkin.

3232. Buyurtmachi korxonalar etib yagona buyurtmachi korxonalar belgilanganda ushbu korxonalar uchun tuman darajasida maxsus g‘azna hisobvaraqlari ochilib, “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan g‘olib loyihani amalga oshirish uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar o‘tkazib beriladi.

3233. Ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish uchun yagona buyurtmachi korxonalar va balansda saqlovchi o‘rtasida bitim imzolanadi. Bitimda loyihani amalga oshirish qiymati, amalga oshiriladigan ishlar, qabul qilib olish muddati va boshqa texnik ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.

3234. Yagona buyurtmachi korxonalar tomonidan loyihani amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pudratchi korxonalar bilan shartnomalar rasmiylashtiriladi.

3235. Ta‘mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng ta‘mirlangan ob‘ekt amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishli hujjat va xulosalar bilan birga balansda saqlovchiga topshiriladi.

3236. Ta‘mirlash ishlari sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

24-bob. Bino va inshootlar qurish (barpo etish) bilan bog‘liq tadbirlar

3237. Jamoatchilik ehtiyoji uchun fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladigan ob‘ektlar, shu jumladan, bino va inshootlarni qurishda (keyingi o‘rinlarda – qurilish ishlari) buyurtmachi etib:

- qurilish ishlarining amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha bo‘lsa, balansda

saqlovchi korxonadan (keyinchalik ob'ektni qabul qilib olishda tegishli mutaxassislarni yollagan holda ularning xulosasini olish sharti bilan);

- qurilish ishlarining amalga oshirish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravaridan ortiq bo'lsa, yagona yetkazib beruvchi korxonalar belgilanadi.

3238. Balansda saqlovchilar buyurtmachi sifatida qurilish ishlarini amalga oshirishda:

a) qurilish ishlarini amalga oshirish uchun Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni:

- elektron do'kon orqali;

- auksion orqali;

- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;

- yagona yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shaklda;

b) qurilish ishlarini amalga oshiruvchi pudratchi tashkilotlarni:

- eng yaxshi takliflarni tanlash orqali;

- tender orqali aniqlagan holda amalga oshiradi.

3239. Ajratilgan mablag'lar faqat Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan qurilish ishlarini amalga oshirish va ushbu tadbirlarni bajarish uchun qo'shimcha talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlariga sarflanishi mumkin. Bunda Manzilli ro'yxatda ko'rsatilgan qurilish ishlari hajmi oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3240. Balansda saqlovchilar sifatida buyurtmachi belgilanib ishlar amalga oshirilganda qurilish ishlari yakunlariga ko'ra bajarilgan ishlarni belgilangan texnik mezonlarga muvofiqligi yuzasidan mutaxassislar jalb etilgan holda ob'ektlar qabul qilib olinishi va foydalanishga topshirilishi lozim.

3241. Qurilish ishlarining haqiqiy bozor narxi Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'dan ortiq bo'lsa, ekspertizadan o'tkazilgan loyiha-smeta hujjatlari hamda buyurtmachining xulosasiga asosan qurilish ishlarining yakuniy qiymatiga aniqlik kiritilishi mumkin. Bunday hollarda yetishmagan mablag'lar Jamg'arma hisobidan ajratilishi uchun Manzilli ro'yxatga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan xalq deputatlari tuman Toshloq tuman Kengashi qarori qabul qilinishi lozim.

3242. Buyurtmachi korxonaga etib yagona buyurtmachi korxonalar belgilanganda ushbu korxonaga uchun tegishli tuman darajasida maxsus g'azna hisobvaraqlari ochilib, "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan g'olib loyihani amalga oshirish uchun ko'zda tutilgan mablag'lar o'tkazib beriladi.

3243. Qurilish ishlarini amalga oshirish uchun yagona buyurtmachi korxonaga va balansda saqlovchi o'rtasida bitim imzolanadi. Bitimda loyihani amalga oshirish qiymati, amalga oshiriladigan ishlar, qabul qilib olish muddati va boshqa texnik ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

3244. Yagona buyurtmachi korxonalar tomonidan loyihani amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pudratchi korxonalar bilan shartnomalar rasmiylashtiriladi.

3245. Qurilish ishlari yakunlangandan so'ng Yagona buyurtmachi korxonaga tomonidan yangi qurilgan ob'ektlar tegishli hujjat va foydalanishga loyiq ekanligi yuzasidan texnik xulosalar bilan birga balansda saqlovchiga topshiriladi.

3246. Qurilish ishlari sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

25-bob. Loyihalarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi

3247. Tuman (shahar) hokimliklari qoshida tashkil etilgan Ishchi komissiya tomonidan tashabbusli byudjet jarayonlari ijrosi yuzasidan har chorak yakunlariga ko‘ra hisobotlar hokimlikning rasmiy veb-sayti hamda Portal orqali jamoatchilikka e‘lon qilib boriladi.

3248. G‘olib deb topilgan loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlari fuqarolar uchun ochiqligini va ular tomonidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishini ta‘minlash maqsadida Portalda “loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi” yuritib boriladi.

3249. Ishchi komissiya loyihalarni amalga oshirish xronologiyasida tegishli ma‘lumotlar belgilangan muddatlarda kiritilishiga va yangilab borilishiga mas‘ul hisoblanadi.

3250. Loyihalarni amalga oshirish xronologiyasi quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi:

- buyurtmachi tashkilot nomi;
- loyiha uchun ochilgan hisobvaraqlar;
- loyiha uchun ajratilgan mablag‘ miqdori;
- loyiha-smeta va ekspertiza hujjatlari;
- “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq o‘tkazilgan tanlovlar;
- pudratchi korxonalar to‘g‘risida ma‘lumotlar;
- amalga oshirilgan xarajatlar va rasmiylashtirilgan shartnomalar.

3251. G‘olib deb topilgan loyihalar mualliflari tomonidan tadbirlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarini kuzatish hamda bajarilgan ishlarni real-vaqt ko‘rinishida baholab borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda jamoatchilik nazorati doirasida fuqarolar tadbirlarni kuzatib borish orqali qonun buzilishi holatlari yoki kamchiliklar kuzatilganda shikoyat tarzida

vakolatli organlarga yoki Portal orqali “onlayn murojaat” sahifasiga murojaat qilishlari mumkin.

3252. G‘olib deb topilgan loyiha tashabbuskorlari tomonidan loyihani amalga oshirishda boshqa ko‘rinishdagi aralashuvlarga (pudratchi korxonani aniqlash yoki ishlarni ularning o‘zlari tomonidan amalga oshirish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shu kabilarga) yo‘l qo‘yilmaydi.

3253. Loyihalar amalga oshirilgandan so‘ng g‘olib deb topilgan loyihalar tashabbuskorlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar Portalda “Jamoatchilik nazorati” bo‘limi orqali baholanadi va bajarilgan ishlar yuzasidan kamchiliklar kuzatilganda izohlar bildirish hamda foto yoki video materiallar ilova qilish imkoniyati yaratiladi.

3254. Loyihalarni amalga oshirish davomida yoki ishlar yakunlangandan so‘ng bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra ortiqcha to‘lovlar yoki kamomad aniqlangan hollarda, aniqlangan kamomad mablag‘lari tegishliligi bo‘yicha jamg‘armaga to‘liq qayta tiklanishi ta’minlanadi”;

4) 5 va 6-illovalar bilan to‘ldirilsin.

*tuman byudjeti mablag'larini jamoatchilik fikri
asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish
tartibi to'g'risidagi nizomga
5-ilova*

Tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha buyurtmachi tashkilotlar ro'yxati

T/R	Loyihaning qisqacha nomi	Balansda saqllovchi	Buyurtmachi korxonasi		
			xarid tadbirlari	ta'mirlash tadbirlari*	qurish tadbirlari*
1	Avtomobil yo'llarini (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	X	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi/ Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi/ Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
		Umumfoydalanishdagi yo'llar	X	Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK	Mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
2	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Maktabgacha ta'lim bo'limi	Maktabgacha ta'lim bo'limi	Maktabgacha ta'lim bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi
3	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish yoki ta'mirlash (simyog'och o'rnatish) tadbirlari	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi	tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi
4	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Xalq ta'limi bo'limi	Xalq ta'limi bo'limi	Xalq ta'limi bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi	Xalq ta'limi bo'limi/yagona buyurtmachi korxonasi
5	Bolalar maydonchalarini (o'yingohlarini) barpo etish yoki ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Mahalla fuqarolar yig'ini	Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvatlash bo'limi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvatlash bo'limi /yagona buyurtmachi korxonasi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvatlash bo'limi /yagona buyurtmachi korxonasi
		Ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatish shirkatlari	Hokimlik	Hokimlik/yagona buyurtmachi korxonasi	Hokimlik/yagona buyurtmachi korxonasi
6	Ko'p qavatli uylarni ta'mirlash tadbirlari	Ko'p qavatli uylarga xizmat ko'rsatish shirkatlari	X	Hokimlik	Hokimlik/yagona buyurtmachi korxonasi

T/R	Loyihaning qisqacha nomi	Balansda saqlovchi	Buyurtmachi korxonona		
			xarid tadbirlari	ta'mirlash tadbirlari*	qurish tadbirlari*
7	Sport muassasalari yoki sog'lomlashtirish markazlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish	Barcha hollarda	Sportni rivojlantirish bo'limi	Sportni rivojlantirish bo'limi	Sportni rivojlantirish bo'limi
8	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasi	Tibbiyot birlashmasi/yagona buyurtmachi korxonona	Tibbiyot birlashmasi/yagona buyurtmachi korxonona
9	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo'lgan boshqa ob'ektlar)ni ta'mirlash-tiklash bilan bog'liq xarajatlar	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi/yagona buyurtmachi korxonona	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi/yagona buyurtmachi korxonona
10	Drenaj va ariq (zovur)larni tartibga keltirish bilan bog'liq tadbirlar	Irrigatsiya bo'limi	X	Irrigatsiya bo'limi	Irrigatsiya bo'limi
11	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish (tuman yoki shahar qiyofasini o'zgartirish) bilan bog'liq tadbirlar	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
12	Qabristonlarni tartibga keltirish tadbirlari	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
13	Aholi dam olish maskanlarini ta'mirlash yoki moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlar	Barcha hollarda	Balansda saqlovchi byudjet tashkiloti	Balansda saqlovchi byudjet tashkiloti /yagona buyurtmachi korxonona	Balansda saqlovchi byudjet tashkiloti /yagona buyurtmachi korxonona
14	Tabiiy gaz ta'minoti bilan bog'liq loyihalar	Tuman gaz ta'minoti	X	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonona	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonona
15	Elektr ta'minoti, transformator o'rnatish va ta'mirlash tadbirlari	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonona	Tuman hokimligi/yagona buyurtmachi korxonona
16	Ichimlik suvi va oqava suv tizimini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar	Suv ta'minoti korxonasi	X	Tuman hokimligi/ Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlari qurilishi bo'yicha injineriing kompaniyasi UK xududiy boshqarmalari	Tuman hokimligi/ Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlari qurilishi bo'yicha injineriing kompaniyasi UK xududiy boshqarmalari
17	Musiqashkilotlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Musiqashkilotlari	Musiqashkilotlari	Musiqashkilotlari/yagona buyurtmachi korxonona	Musiqashkilotlari/yagona buyurtmachi korxonona
18	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Byudjet mablag'larini taqsimlovchisi	Byudjet mablag'larini taqsimlovchi	Byudjet mablag'larini taqsimlovchi/yagona buyurtmachi korxonona	Byudjet mablag'larini taqsimlovchi/yagona buyurtmachi korxonona

T/R	Loyihaning qisqacha nomi	Balansda saqllovchi	Buyurtmachi korxonona		
			xarid tadbirlari	ta'mirlash tadbirlari*	qurish tadbirlari*
19	Oliy o'quv yurtlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Oliy o'quv yurti	Oliy o'quv yurti	Oliy o'quv yurti/yagona buyurtmachi korxonona	Oliy o'quv yurti/yagona buyurtmachi korxonona
20	Boshqalar	x	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi

Izoh:

1. Agar ushbu ro'yxatda ko'rsatib o'tilgan buyurtmachi korxonalar mavjud bo'lmasa, xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan boshqa buyurtmachi korxonona belgilanishi mumkin;

2. Ushbu ro'yxatda ko'rsatib o'tilmagan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha buyurtmachilarni belgilash xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

*tuman byudjetlari mablag'larini
jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan
tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
6-ilova*

**_____ shahar bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan
ID _____ loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)
Reestri**

Ming.so'm

T/R	Tovar (xizmat) nomi	soni	bozor narxi	Summasi
1				
2				
3				
4				
5				
...				
Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*				

*Manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'dan ortib ketishi **mumkin emas**.